

Toshkent davlat sharqshunoslik instituti
“Jahon siyosati va tarix” fakulteti
“Tarix (mamlakatlar va yoʻnalishlar boʻyicha)”
yoʻnalishi “dariy-ingliz” guruhi
1-bosqich magistranti Doʻsmatova
Oltinoyning “Oʻrganilayotgan mintaqa taraqqiyoti
xususiyatlari ” fanidan

Referat

Mavzu: *Mintaqa mamlakatlarida ijtimoiy-siyosiy jarayonlarning
oʻziga xos xususiyatlari*

Bajardi: Doʻsmatova O.T.
Tekshirdi: Abdullayev N.A.

Mintaqa mamlakatlarida ijtimoiy-siyosiy jarayonlarning o'ziga xos xususiyatlari

Reja:

1. XVI asrda mintaqa mamlakatlarida ijtimoiy-siyosiy jarayonlar
2. Afg'onistonda durroniylar sulolasi hukmronligi davrida ijtimoiy-siyosiy jarayonlar
3. XIX asrning 60-yillari oxirigacha bo'lgan davrda Eronda ijtimoiy-siyosiy jarayonlar
4. 1905-1911-yillarda Eron inqilobi.
5. XIX asr oxiri – XX asr boshlarida Afg'onistonning ijtimoiy-siyosiy ahvoli

Eronda ijtimoiy-siyosiy jarayonlarning o'ziga xos jihatlari

XVI asrdan boshlab afg'onlar Eron safaviylari va Hindiston boburiylariga qarshi uzoq yillar davomida mustaqillik kurashi olib borganlar. Sharqiy Afg'oniston Hindiston boburiylariga qaram edi. Asosiy savdo yo'llarini 1649-yil Eron safaviylari egallab oldi va bu holat 1709-yilgacha davom etdi. Eron bosib olgan hududlarda, bir tomondan, afg'on qabilalarini bir-biriga gijgijlash yo'li bilan ularni kuchsizlantirishga uringan bo'lsa, ikkinchi tomondan esa qabilalar hukmdorlariga turli xil unvonlar va yer-mulklar berish evaziga ular bilan kelishish siyosatini yuritdi.

Biroq bu siyosatdan ko'zlangan maqsadga erishilmagan. Aksincha, afg'on qabilalari o'z mustaqilliklari uchun qattiq kurash olib bordilar. Hindiston boburiylari hukmronligiga qarshi 1666- yilda ko'tarilgan qo'zg'olonni Avrangzeb Olamgir 1672-yilda bostirdi.

Biroq bu davrda Hindiston va Eronda ham hukmron sulola ehuqur tushkunlik davrini boshdan kechirayotgan cdi. Endilikda ular qudratli qo'shin saqiash uchun zarur mablag'ga ega emasdilar.

1709- yilda Qandahor viloyatida Eron bosqinchilariga qarshi qo'zg'olon ko'tarildi. Qo'zg'olonga afg'onlarning gilza qabilasi xoni Mir Vaysxon rahbarlik qildi. Uning harbiy qismi tez orada Qandahor shahrini bosib oldi.

2. Afg'oniston - Eron munosabatlari. Qisqa vaqt ichida Qandahor qudratli xonlikka aylandi. U 1722-yilda Eron poytaxti Isfahonni ham egalladi va Mir Vaysxonning o'g'li Mir Mahmud o'zini Eron shohi deb e'lon qildi. Endi esa Eron mustaqillik uchun kurash boshladi. Bu kurashga Nodir Quli (1688-1747) boshchilik qildi. U Eron qo'shini qo'mondonlaridan biri edi. 1729-yilda Eron afg'on bosqinchilaridan ozod etildi.

1736-yilda Nodir Quli Eron shohi deb e'lon qilindi. U ayni paytda katta bosqinchilik urushlari ham olib bordi. Chunonchi, 1738-yilda Afg'onistonni ham bo'ysundirdi. Afg'onistonni itoatda tutish uchun Erondan 12 ming jangchini oilalari bilan Kobul va boshqa shaharlarga ko'chirib keltirdi.

3. Afg'oniston davlatining tashkil topishi. 1741-yilda Nodirshoh vafot etgach, zulmga asoslangan imperiya ham parchalandi. Bu davda Boburiylar imperiyasi yashayotgan bo'lsa-da, amalda u hech qanday kuch-qudratga ega emas edi. Shu tariqa Afg'oniston davlatining tashkil topishi uchun barcha zarur tashqi sharoit yetildi. Mamlakat ichkarisida esa yagona Afg'oniston davlatini tuzish harakati ham boshlangan edi.

1747-yilda afg'onlarning abdali qabilasi boshlig'i Ahmadxon qabila xonlarining jirg'asi (kengashi) Afg'oniston shohi deb e'lon qildi. Ahmadshoh qisqa vaqt ichida mamlakat hududini bosib olingan o'lkalar hisobiga kengaytira oldi. Bu g'alabalar evaziga u o'ziga «Durri-Duron» unvonini qabul qildi va abdali qabilasining nomini durrani nomi bilan o'zgartirdi. Markaziy hokimiyatga bo'ysunmaslik harakati va bosib olingan o'lka xalqlarining doimiy qo'zg'olonlari oqibatida Durroniylar sulolasining hukmronligi zaiflashdi. Ahmadshohning vorislari bu ikki omilga qarshi qanchalik kurashmasinlar, ularni bostira olmadilar. Ahmadshohning nabirasi Zamonshoh (1793-1801) bobosining bosqinchilik urushlarini davom ettirishga urinib ko'rdi. Ma'lum darajada bunga erishdi ham.

4. Durroniylar sulolasi hukmronligining barham topishi. Zamonshoh ham ichki o'zaro nizolarni bostira olmadi. Aksincha, uning o'zi ham fitna qurboni bo'ldi. Bu davrda vorislar o'rtasidagi toju taxt kurashi ham avj oldi. Bundan boshqa qabilalar xonlari foydalanishga urindilar. Chunonchi, barakzaylar yetakchisi Fathxon hali u vorisni, hali bu vorisni taxt uchun kurashda qo'llab, davlatda bosh vazir lavozimini egallab oldi. U 1809-yildan boshlab butun davlat ishlarini amalda o'z qo'lida to'plashga erishdi. U yirik harbiy sardorlardan biri,

ukasi Do'st Muhammadxon yordamiga tayanardi. Ular Afg'o-nistonning deyarli barcha muhim viloyatlari hokimlarining o'zlariga qarashli kishilardan tayinlanishiga erishdilar. Uzoq davorn etgan o'zaro shafqatsiz ichki urushlardan so'ng 1826-yilda Do'st Muhammadxon Afg'oniston taxtini egalladi va o'zini amir deb e'lon qildi. Shu tariqa Durroniylar sulolasi hukmronligi barham topdi. Mamlakatda Barakzaylar sulolasi hukmronligi o'rnatildi. Amir Do'st Muhammadxon butun Afg'onistonni yagona davlatga birlashtirishga va uni kuchli davlatga aylantirishga harakat qildi.

5. Afg'on-ingliz urushi. Afg'oniston geografik jihatdan muhim strategik mintaqada joylashganligi uchun bu davlat hududida Buyuk Britaniya va Rossiya manfaatlarini to'qnashdi. Buyuk Britaniya Afg'onistonni o'z ta'sir doirasiga olish maqsadida sikxlarni unga qarshi gijgijlay boshladi. 1838-yil esa o'zi Afg'onistonga hujum qildi. Ingliz armiyasi 1839-yil Kobul shahrini egalladi. Taxtga Durroniylar sulolasining vakili Shuju o'tqazildi. Biroq afg'on xalqini bo'ysundirish oson emas edi. 1841-yil Kobul aholisi qo'zg'olon ko'tardi. Bu qo'zg'olonda Do'st Muhammadning o'g'li Akbarshoh katta rol o'ynadi. Buyuk Britaniya qo'shini qo'mondonligi barcha ingliz harbiy qismlarini Afg'onistondan olib chiqib ketish to'g'risidagi shartnomani imzolashga majbur bo'ldi. 1842-yil Buyuk Britaniya qo'shini Afg'onistondan chiqib ketdi. Shu tariqa birinchi afg'on - ingliz urushi Buyuk Britaniya mag'lubiyati bilan tugadi. Do'st Muhammadxonning amirlik hokimiyati qayta tiklandi.

6. Afg'oniston 1842-1870-yillarda xalqaro munosabatlarda. 1843-yilda «Ost-Indiya» kompaniyasi Hindistonning Sind viloyatini ham bo'ysundirdi. Shu tariqa ingliz mustamlakalari chegarasi Afg'onistonga tutashdi. Inglizlar bilan qayta urushni istamagan Do'st Muhammadxon 1855-yilda ingliz - afg'on do'stlik shartnomasini imzoladi. 1857-yilda Buyuk Britaniya bilan Afg'oniston o'rtasida harbiy shartnoma ham tuzildi. Bu shartnoma Buyuk Britaniya uchun Afg'onistonni vassal davlatga aylantirish yo'lidagi birinchi qadam bo'ldi.

1863-yilda Do'st Muhammadxon vafot etgach, uning o'g'illari o'rtasida to'ju taxt uchun kurash avj oldi. Hindistonda bo'lib o'tgan sipohilar qo'zg'olonidan cho'chib qolgan Buyuk Britaniya Afg'oniston ichki ishlariga aralashmasligini bildirdi.

Ikkinchi tomondan, O'rta Osiyoning Rossiya imperiyasi tomonidan istilo qilinishining boshlanganligi ham Afg'oniston uchun xalqaro qulay vaziyat yaratdi. Shunday bir sharoitda, Buyuk Britaniya Rossiya bilan kelishuv yo'lini izladi. Afg'oniston bu ikki mustamlakachi davlatlarning Osiyodagi mustamlakalarini ajratib turuvchi hudud vazifasini o'tashi kerak edi.

1870-yil Afg'oniston mustamlaka ham, qaram davlat ham emas edi. Biroq lining chegaralariga janubi-sharqdan inglizlar, shimoldan esa Rossiya tobora yaqinlashib kelayotgan edi.

XIX asrning 60-yillari oxirigacha bo'lgan davrda Eron

Eron XIX asrda ham mutlaq monarxiya edi. Davlat boshlig'i shoh bo'lib, u cheklanmagan huquqqa ega bo'lgan. Butun hokimiyat uning qo'lida to'plangan. Shoh huzurida maxfiy kengash tuzilgan bo'lib, uning tarkibiga sadr-a'zam, amin ad-davla, vazir, hakimboshi va shayx ul-islom kirgan. Davlat viloyatlarga bo'lingan, ularni beklarbegi boshqargan. Taxt vorisiga Ozarbayjon ham berilgan bo'lib, uning qarorgohi Tabriz shahrida joylashgan edi.

XIX asr boshlarida Eron xalqaro siyosatda muhim o'rin tuta boshladi. Bunga Buyuk Britaniya va Fransiyaning Sharqda hukmronlikni o'z qo'llariga olish uchun boshlagan kurashlari hamda Rossiyaning Kavkazni qo'lga kiritishga intilayotganligi sabab bo'ldi.

Buyuk Britaniya va Fransiya Rossiyaning Kavkazda mustah-kamlanib olishiga yo'l qo'ymaslik maqsadida bu o'lkada katta hududlarni bosib olgan Eronni qo'llab-quvvatlay boshladilar. Biroq bu hol Rossiyaning Kavkazga nisbatan siyosatini o'zgartira olmasdan, Rossiya Eron bilan urushda birin-ketin g'alaba qozonib, o'zi uchun qulay shartnomalar tuzilishiga erishgan.

Chunonchi, 1813-yil bu ikki davlat o'rtasida imzolangan shartnoma Rossiyaga Kavkazda yanada mustahkamlanib olishga imkon berdi. 1826-yilda bo'lib o'tgan Eron-Rossiya urushida Eron yana yengildi. Ikki davlat o'rtasida imzolangan *Turkmanchoy* shartnomasiga ko'ra, Rossiyaning Kavkazdagi mavqei yanada mustahkamlandi. Eron esa Kavkazorti hududlarida bo'lgan da'vosidan voz kechdi.

Eronning Buyuk Britaniya bozoriga aylanishi. Rossiya bilan urushdagi mag'lubiyat va uning oqibatlari Eron hukmron tabaqalari o'rtasida keskin norozilik keltirib chiqardi. Oqibatda Eronning qator viloyatlarida yirik yer-mulk egalari boshchiligida shohga qarshi isyon ko'tarildi. Buyuk Britaniya Eronning og'irahvolidan foydalanib, 1841-yil Eronni noteng shartnomani imzolashga majbur etdi. Unga ko'ra, Buyuk Britaniya Eron bilan savdo-sotiq ishlarida katta imtiyozlarga ega bo'lib oldi. Oqibatda, u Eron bozorlarini o'z yengil sanoat mahsulotlari bilan to'ldirib tashladi. Bu esa, o'z navbatida, mahalliy dehqonlarni, hunarmand va savdogarlarni xonavayron qildi. Shu tariqa Eron yirik mustamlakachi davlatlardan biri - Buyuk Britaniyaning sanoat mahsulotlari sotiladigan bozoriga aylanib qoldi. Bu o'z navbatida mamlakatda pulga bo'lgan ehtiyojni oshirib yubordi.

Natijada davlat apparatidagi mansablarni sotish va sotib olish nihoyatda kuchaydi. Viloyat hukmdorlari, katta-katta yer-mulk egalari davlat xazinasiga soliq to'lamay qo'ydi. Bu omillar mamlakat mehnat-kash qatlamlari orasida keskin norozilik kelib chiqishiga sabab bo'ldi. Bu esa, o'z navbatida, Eronda bobiylar qo'zg'olonini keltirib chiqardi.

Bobiylar qo'zg'oloni. Qo'zg'olon shoh tuzumiga, zulmiga va yer egaligiga qarshi qaratilgan edi. Qo'zg'olon ishtirokchilari, asosan, hunarmandlar, mayda savdogarlar, shahar kambag'allari va shahar atrofi'da yashovchi dehqonlar edi. Qo'zg'olonga quyi tabaqadagi ruhoniylar va bobiylar tarafdorlari bo'lgan savdogarlar boshchilik qilgan.

Qo'zg'olon 1848-yil boshlandi. Bu qo'zg'olon tarixga bobiylar qo'zg'oloni nomi bilan kirgan. Chunki qo'zg'olonchilar bobiylar ta'limoti tarafdorlari bo'lgan. Bu ta'limotning asoschisi Sayid Ali Muhammad bo'lib, o'ziga Bob taxallusini qabul qilgan edi. Bobiylar atamasi shu taxallusdan kelib chiqqan.

Sayid Ali Muhammad 1819-yil Sheraz shahrida tug'ilgan bo'lib, shu shaharda yashovchi mayda savdogarning o'g'li edi. 1844-yil o'zini Bob, (arabcha - eshik, darvoza) ya'ni, «haqiqat va adolat yo'liga olib boruvchi eshik», deb atay boshlaydi.

Bobiylar ta'limoti asosida ilohiy xaloskor (mahdiy)ning kelishi yaqinlashganligi g'oyasi yotadi. Shu tufayli Bob mahdiyning xohish-irodasi, ko'rsatmalari, yo'l-yo'riqlari xalqqa men orqali boradi, deb targ'ib qilgan. U «Bayon» nomli kitob yozgan. Kitobda bobiylar harakatining asoslari yoritib berilgan. Bob kitobida o'zini Muhammad (s.a.v.) o'rniga kelgan payg'ambar deb, «Bayon» kitobini esa Qur'oni karim o'rnini bosuvchi kitob deb e'lon qilgan.

Bobiylar shaxsni himoya qilish, kambag'allardan olinadigan soliqlarni bekor qilish, yirik yer egaligini tugatish, barcha mol-mulklarni odamlarga teng taqsimlash kabilarni talab qilganlar. Ayni paytda ular mavjud dini bekor qilish va davlat tuzumini ag'darib tashlash tarafdorlari bo'lganlar.

Bobiylar qo'zg'oloni 1850- yilning o'rtalarigacha davom etdi. Oxir-oqibatda, shoh qo'shini qo'zg'olonni bostirishga muvaffaq bo'ldi. Sayid Ali Muhammad esa qatl etildi.

Qo'zg'olonning yengilishi sabablari. Xo'sh, bobiylar qo'zg'oloni nega mag'lubiyatga uchradi? Uning asosiy sababi shuki, bobiylar ta'limotining islom dini asoslariga zidligi edi.

Bundan tashqari, qo'zg'olon puxta uyushtirilmagan, tarqoq holda olib borildi. Shuningdek, qo'zg'olon aholining asosiy qismini tashkil etuvchi dehqonlarning kattaqismi tomonidan qo'llab-quvvatlanmadi.

Qolaversa, qo'zg'olonchilar qat'iy harakat qilmadilar. Ular ko'p hollarda bosib olgan shahar yoki qal'alar bilan cheklanib qoldilar hamda shoh qo'shinining hujumini kutib turish taktikasini qo'lladilar.

Eron - Buyuk Britaniya urushi. Buyuk Britaniya Eronning kuchsizlanib qolganligidan tbydalanishga qaror qildi. O'rta Osiyodagi bosqinchilik maqsadlarida Hirot shahrining katta ahamiyatga ega ekanligini unutmagan Buyuk Britaniya 1853-yil Eronni rasman Hirotga da'vosidan voz kechishga majbur etdi. Biroq 1856-yil Eron Hirot shahrini bosib oldi. Eronning Hirotni bosib olganligiga javoban Buyuk Britaniya Eronga urush e'lon qildi. Ikki davlat o'rtasida boshlangan harbiy harakatda Eron mag'lubiyatga uchradi.

1857-yil Buyuk Britaniya va Eron o'rtasida Parij Tinchlik shartnomasi imzolandi. Shartnomaga ko'ra, Eron Hirotga va Afg'onistonning boshqa hududlariga bo'lgan da'vosidan butunlay voz kechdi.

Eron-Afg'oniston o'rtasida nizo kelib chiqqudek bo'lsa, bu nizo Buyuk Britaniya vositachiligida hal etiladigan bo'ldi. Parij Tinchlik shartnomasi Buyuk Britaniyaning Erondagi ta'siri sezilarli darajada o'sishiga xizmat qildi.

XIX asr oxiri – XX asr boshlarida Eron

Angliya va Rossiyaga qaramlikning kuchayishi. XIX asr oxiri va XX asr boshlarida Eron dunyo sarmoyador davlatlarining yarim mustamlakasiga aylandi. Shoh tuzumi va mustamlakachilik zulmi xalq ahvolini yanada og'irlashtirdi. Mamlakatda noroziliklar kuchaydi.

Erondagi mustabid hokimiyat feodal-byurokratik qatlamlar, ayniqsa mamlakat hududida yashovchi mayda elatlar - ozarbayjon, afg'on, turkman, kurd, arman va gruzinlarni shafqatsiz ezib kelayotgan viloyat hokimlari hamda urug'laming xonlariga tayanar edi. Eronda sanoatning burjualashuvi sust kechdi. Yer dehqonlarni ekspluatatsiya qilib kelayotgan mulkdorlar qo'lida edi. Shaharlarda yashovchi hunarmandlar va mayda savdogarlar kabi dehqonlar ham sudxo'rlar tomonidan qarzga botirilgandi.

Eron zamindorlari, savdogarlari va sudxo'rlari shoh hoki-miyatini cheklab qo'yishni, o'z mulklarining daxlsiz bo'lishini, guber-natorlar va xonlar o'zboshimchaligiga barham berishni, eronlik sarmoyadorlarning huquqlarini chet ellik kapital egalari bilan teng qilib qo'yilishini talab qildilar.

Eronga kapital chiqarish bo'yicha Angliya birinchi o'rinda edi. 1872-yili Eron neft konlaridan foydalanish, tosh va temiryo'l qurish konsepsiyalari olindi. 1889-yili ingliz monopolisti Reyter Eronda "Shohanshohbank" ochishga erishdi. Shartga ko'ra, bank qog'oz pullar chiqarish va mamlakat yerosti boyliklaridan erkin foydalanish huquqini oldi. I jahon urushi arafasida Eron Angliyadan 9,6 million funt sterling qarz bo'lib qoldi.

Eronni qaram qilishda Rossiya ham ishtirok etdi. Birinchi jahon urushi arafasida Eronning Rossiyadan qarzi 164 million rublni tashkil etdi. Eronning iqtisodiy qaramligi siyosiy qaramlikni ham kuchaytirdi. Ayniqsa, ruslarning shoh saroyiga ta'siri kuchli edi. Inglizlar esa boshqa yo'ldan bordilar. Ular Fors viloyati, baxtiyorlar (qabilalar), Huziston xonlarini Markazga, shoh hukmronligiga qarshi gijgijlab turdilar.

Ichki ijtimoiy ziddiyatlar, tashqi iqtisodiy va siyosiy siqovlar Eronda 1905-yili inqilobiy harakat boshlanishiga sabab bo'ldi.

1905-1911-yillarda Eron inqilobi. Mamlakat aholisi butun mamlakat sanoat tarmoqlariga xo'jayinlik qiluvchi rus-ingliz sarmoyadorlarini mamlakat hududidan chiqarib yuborishni talab qildilar.

Mamlakatda umumiy ish tashlash yuz berdi. Shoh hukumati ish tashlovchilardan shafqatsiz o'ch olishga kirishdi. Bunga javoban xalq harakati boshlanib ketdi. Xalq masjid va qabristonlarda tinch o'tirib, passiv qarshilik ko'rsatish taktikasini qo'lladi. Bu *best* deb atalgandi. Bestda o'tirgan odamga jazo chorasi qo'llash mumkin emas edi. Namoyishchilar «adolatxona» tashkil etish, yovuz amaldorlarni haydash talabi bilan chiqdilar.

Shoh xalq harakatiga qarshi armiyadan foydalanmoqchi bo'ldi. Biroq, qo'shin xalqqa o'q uzishdan bosh tortdi. Natijada, 1906-yilning 5-avgustida shoh Konstitutsiya qabul qilish haqida farmon chiqarishga majbur bo'ldi. Lekin farmon ijrosiz qolgach xalq yana qo'zg'aldi. Buning oqibatida Tabrizda Eron tarixida birinchi parlament - Majlis tuzildi. Majlis amalda shohning xatti-harakatlari ustidan nazorat o'rnatdi. Majlis Eron sotsial-demokratlari ta'siri ostida edi. 9-sentabrda shoh xalq tazyiqi bilan Majlisga saylovlar o'tkazish haqida Farmon berdi. Saylov ikki bosqichda ijtimoiy qatlamlar bo'yicha o'tadigan bo'ldi. Kojarlar (ya'ni shoh urug'iga mansublar), ruhoniylar savdogarlar, zamindorlar va dehqonlar, hunarmandlar-jami 6 ijtimoiy qatlam saylov huquqiga ega bo'ldilar.

1906-yil 7-oktabrda Majlisga saylov o'tkazildi. 1906-yil 30-dekabr kuni shoh Muzaffariddin Konstitutsiyaning birinchi qismini tasdiqladi. Unga binoan shohga barcha qonunlarni tasdiqlash, budjet qabul qilish, uning ijrosini nazorat qilish huquqi berildi. Chet elliklar bilan tuziladigan iqtisodiy bitimlarga Majlisning roziligi olinishi belgilab qo'yildi.

1907-yil 8-yanvarda shoh Muzaffariddin vafot etdi. O'rniga mustabid tuzum tarafdori, yangilikka qarshi Muhammad Alishoh o'tirdi va inqilobiy o'zgarishlarga qarshi kurash boshladi. Yangi shoh Majlisga qat'iy qarshi edi. Lekin, inqilobiy harakat ko'fllami uni Eronda konstitutsiyaviy tartibni saqlab turishga majbur etdi. Shu bilan 1905-1907-yillardagi Eron inqilobining birinchi bosqichi tugadi.

1907-1911-yillar Eron inqilobining ikkinchi davri deyiladi. Harakat endi asosan mustamla-kachilarga qarshi qaratildi. Shahar kambag'al qatlamlari ham o'z talablari bilan chiqishdi.

Ayniqsa, mujohidlar tashkiloti katta ta'sirga ega bo'ldi. Ular hammaga teng, yashirin saylov huquqi, so'z, jamiyatlar tuzish, shaxs erkinligi, shoh yerlarini musodara qilish, ularni dehqonlarga taqsimlash, ish vaqtini 8 soat qilib cheklash, bepul va majburiy ta'lim joriy qilish kabi talablar bilan chiqdilar.

Demokratik harakat ta'siri ostida shoh zamindor zodagonlarning nafaqasini qisqartirdi. Feodal zamonga xos bo'lgan unvonlarni bekor qildi. Poraxo'rlik, tamagirlikka qarshi kurash to'g'risida qonun e'lon qildi. Shoh Eron Konstitutsiyaning eng muhim demokratik mazmundagi moddalarini tasdiqlab imzo chekishga rozi bo'ldi. Qonun oldida hamma teng, shaxs va mulk daxlsizligi, jamiyatlar tuzish, majlislar o'tkazish, dunyoviy sud (shariat sudi bilan bir qatorda), qonun chiqaruvchi va ijro etuvchi davlat organlarini ajratish kabi moddalar muhim ahamiyatga ega edi.

Ayni paytda, shohga katta huquqlar ham berildi. Chunonchi, shoh javobgarlikdan ozod shaxs, u Bosh qo'mondon sifatida urush e'lon qilish, sulh tuzish, vazirlarni tayinlash va bo'shatish kabi huquqlarga ega edi. Shohning Konstitutsiya va qonunlarga sodiqlik haqida qasamyod qilishi qoida qilib qo'yildi. Qabul qilinayotgan qonunlarning shariatga muvofiqligi ustidan nazorat qilish uchun besh ulug' dindor (ulamo) tayinlanadigan bo'ldi.

Angliya-Rossiya bitimi. Jahon mustamlakachilik tizimi Erondagi inqilobiy o'zgarishlarga befarq qarab turmadi. Ularning barchasi Eronga nisbatan zo'ravonlik siyosati yuritdilar. 1907-yilning 31 - avgustida Angliya-Rossiya bitimi imzolandi. Bitimga ko'ra Eron uch qismga bo'linadi. Shimoliy Eronning Rossiya, Janubiy Eronning Angliya ta'sir zonasida bo'lishi tasdiqlandi. Eronning o'rta qismi esa betaraf deb e'lon qilindi. Ayni paytda, bu davrda Shoh inglizlar va ruslar yordamida 1908-yil 23- iyunda aksilinqilobiy davlat to'ntarishi o'tkazdi. Rus kazak qo'shinlari Majlis binosini to'pga tutdi. Majlis va anjumanlar tarqatib yuborildi. Demokratik matbuot taqiqlandi.

Majlis halokatga uchragach, inqilobiy harakat markazi Tabrizga ko'chdi. Shoh qo'shinlari Tabrizga hujum qildi. 1909-yil yanvardan to aprel oyigacha Tabriz shoh qo'shinlari qamalida qoldi. Ocharchilik boshlandi. Tashqi dunyodan uzib qo'yilgan Tabriz qo'zg'oloni yengildi.

Tabriz qo'zg'oloni bostirilgani bilan shohga qarshi harakatlar to'xtamadi. 1909-yil iyul oyida Tehronda Muhammad Alishoh taxtdan tushirildi.

O'rniga yosh o'g'li Ahmad shoh deb e'lon qilindi. Konstitutsiya (1906-1907-yillardagi) tiklandi. Hukumat chet eldan qarz olish yo'lidan bordi. Chunonchi, Angliyadan 1 million 250 ming funt sterling qarz olindi. Tashqi siyosatda AQSh va Germaniyaga suyanib ish ko'ra boshladi. 1911-yil may oyida AQShdan M. Shuster moliya missiyasi Eronga keldi. Unga katta vakolatlar berildi. U neft, temiryo'l konsessiyalarini AQShga o'tkazishga urindi. U Angliya va Rossiya o'rtasida nizo chiqarishga urindi. Ichki aksilinqilobchi kuchlar esa inqilobiy Majlisga qarshi hujumga o'tdi. Rus kazak brigadalari qo'mondoni, arman dashnoqlaridan Y.Davidyans boshchiligida 1911-yil dekabrda aksilinqilobiy davlat to'ntarishi o'tkazildi. Eron inqilobi bostirildi.

Erondagi 1905-1911-yillar inqilobi katta ijtimoiy hodisa, feodal-monarxiya tuzumidan konstitutsiyaviy monarxiyaga o'tish bosqichi bo'ldi.

Birinchi jahon urushi arafasida Eronning xorijsa tobeligi yanada kuchaydi. 1912-yil fevralida 1907-yilgi Rossiya-Angliya (ta'sir zonalari haqidagi) bitimini Eron tan oldi. Rossiyadan 14 million rubl qarz olindi va Eron iqtisodiy, siyosiy sohada qaram bo'lib qoldi.

XX ASRNING IKKINCHI YARMIDA ERON

1945-yil yozida demokratik kuchlar Eron Ozarbayjoni va Shimoliy Kurdistonda radikal o'zgarishlar o'tkaza boshladi. Biroq ularning "Eron inqilobi" sifatida ma'lum bo'lgan xatti-harakatlariiga zarba berildi. 1941-yilda tuzilgan xalq partiyasi (*Tude*) tor-mor etildi. Sovet-Eron shartnomasi (1941-yil) asosida kiritilgan sovet qo'shinlari Erondan olib chiqib ketildi.

Bu mamlakatda shoh Muhammad Rizo Pahlaviy (1919-1980) va uning atrofidagi reaksion kuchlarning to'liq hukmronligi qaror topishiga olib keldi. Biroq shoh tuzumiga qarshi kurash davom etdi. Demokratik kuchlar urn iqtisodiy sohaga tatbiq qildi. 1951-yilda butun mamlakatda Angliya-Eron neft kompaniyasi (AENK) bilan tuzilgan bitimni tugatish talab qilingan namoyish va norozilik chiqishlari avj oldi. Neft konlarida ish tashlashlar ko'paydi. Butun mamlakatda ish tashlagan neftchilar bilan hamkorlik harakati keng quloqch yoydi.

Bosh vazir Mosoddig barcha natsionalizatsiya qilish neft konlari va neft haydovchi zavodlarning natsionalizatsiya qilinishini e'lon qildi. Angliya BMT Xavfsizlik Kengashiga arz qildi, u "*Eron nefti*" haqidagi masalani inglizlar bilan birga AQSH vakillari ham ishtirok etadigan xalqaro kompaniya qo'liga berish haqida qaror chiqardi. Mosoddig bu qarorni rad etib, Eron nefti faqat eronliklarning milliy boyligi ekanini bildirdi.

Angliya Eronga iqtisodiy blokada uyushtirdi. Bunga javoban Eron hukumati Angliya bilan diplomatik munosabatlarni uzdi.

Eronga umumxalq harakati keng quloch yoydi, unda keng xalq ommasi, milliy burjuaziya, ziyolilar, mansabdorlar va, hatto, hukmron yuqori tabaqa vakillari yagona front bo'lib qatnashdi.

Angliya AQSH yordamidan foydalangan reaksiya doiralari Mosoddini inqilobga hamkorlikda ayblab, ig'vogarlik chiqishlarini boshladi. 1953-yil 19-avgustda Tehronda davlat to'ntarishi amalga oshirildi. Mosoddini va uning kabineti a'zolari qamoqqa olinib, sudga berildi. Shoh bosh vazir lavozimiga o'tmishda gitlerchilar bilan yaqin aloqada bo'lgan, davlat to'ntarishiga rahbarlik qilgan general Zohidiyni tayinladi. Barcha siyosiy tashkilotlar va taraqqiyparvar gazetalar tor-mor etildi, mamlakat bo'ylab ommaviy qamoqqa olishlar amalga oshirildi.

AENK mulkini boshqarish uchun Xalqaro neft konsorsiumi tashkil etildi, unda AQSH va Angliya vakillari bosh rol o'ynadi. Konsorsium AENKning avvalgi barcha huquqlarini 1994-yilgacha bo'lgan muddatgacha oldi. O'rtadagi bitim Eronning neft boyliklarini natsionalizatsiya qilishni man etar va ularni xorijiy neft monopoliyalariga yana qaytarib berar edi.

Yangi neft konsorsiumi Eron neft boyliklari ekspluatatsiyasini kuchaytirdi: agar 1950-yilda 32 mln. tonna neft qazib olingan bo'lsa, 1961-yilda 57 mln. tonnagacha oshdi. Ishlab chiqarish o'sib bordi. Shoh neft konsessiyalarini Italiya, Kanada va AQSH neft kompaniyalariga bera boshladi. Neft eksporti Eronga ulkan daromad keltirdi. 70-yillar o'rtalarida bu daromad \$.20 mlrd. dan oshdi.

Shoh shuni tushunardiki, Eron uchun iqtisodiyotni rivojlantirish, madaniyatni ko'tarish, aholining turmush darajasini yaxshilashdan iborat bo'lgan tub modernizat siyani amalga oshirish zarur. U 1963-yilda "oq inqilob" g'oyasi yoki, uning o'zi keyinchalik aytganidek, "shoh va xalq inqilobi"ni hayotga tatbiq etib boshladi. U yirik miqyosli ijtimoiy-iqtisodiy va siyosiy-ma'muriy islohotlarni amalga oshirdi. Eronda sanoatning yangi tarmoqlari - metallurgiya, mashinasozlik, neft-kimyo, gaz va alyuminiy sohalari paydo bo'ldi. Milliy kemasozlik va aviatsiya sanoatiga tamal toshi qo'yildi, atom energetikasini yaratishning dastlabki odimlari tashlandi. Eron tezkor ravishda agrar mamlakatdan industrial-agrar davlatga aylana boshladi. Ayni paytda mamlakat g'arb olamining bir qismi sifatida namoyon bo'la bordi.

Biroq iqtisodiy o'sish xalqning ahvolini yaxshilamadi, faqat bir hovuch tijoratchilar va korrupsiya botqog'iga botgan amaldorlarnigina boyitdi, xolos. Shoh tuzumining agrar siyosatida ham maqsadlarga erishilmadi. Yarim feodal munosabatlarning tugatilishi, hissadorlik qishloq xo'jalik kompaniyalarining yaratilishi, agrosanoat jamiyatlarining tuzilishi xo'jaliklarni yiriklashtirib, dehqonlarni daromaddan mahrum etdi. Ular o'z yerlarini yangi qishloq quloqlariga sotib, shaharlarga qochib bordi va proletariat, shahar kambag'allari, mayda do'konchilar saflarini to'ldirdi hamda bo'lg'usi islom inqilobi guruhlarini shakllantirdi.

Shoh islohotlari, uning g'arb davlatlari bilan aloqasi, mamlakatga g'arb madaniyatining kirib kelishi tufayli milliy qadnyatlarning buziishi xalq tomonidan noroziikka sabab bo'ldi. Xalq norozilardan bilan kurashish uchun shoh maxfiy politsiyani (SAVAK) tashkil etdi. Uning devorlan ortida 380 ming eronliklar yo'q qiindi. Mamlakatda haqiqiy inqilob yetildi. Unga rahbarlikni mutaassib shialarga tayangan shia mazhabi ruhoniylari o'z bo'yniga oldi.

1978-yilning sentabri boshlarida Eronning qariyb barcha shaharlarida ommaviy namoyishlar bo'lib o'tdi. Tehron va boshqa 11 yirik shaharlarda harbiy holat joriy etildi. Noyabr boshlarida shohga qarshi norozilik chiqishlari yangi kuchga kirdi. 5 noyabrda butun Tehronni yong'inlar qoplab oldi. Shu kunlarda shohni faqat uncha katta bo'lmagan harbiy guruh va SAVAKgina qo'llab-quvvatlab turgani ma'lum bo'ldi.

Butun Eronni namoyishlar, ish tashlashlar qamrab oldi. Prezident Karter shohni AQSHga ta'tilga kelishga taklif etdi. 1979-yil 16-yanvarda shoh Eronni umrbod tark etdi.

Afg'onistonda ijtimoiy-siyosiy jarayonlarning o'ziga xos jihatlari

XIX asr oxiri – XX asr boshlarida Afg'oniston

70-yillarda Afg'oniston Rossiya bilan Angliya I o'rtasida bahsga sabab bo'lgan mamlakat bolib qoldi. 1873-yili Angliya Hindiston - Afg'oniston chegarasida harbiy kuch to'play boshladi. Afg'on amiri Sheralixon Rossiyadan yordam so'rab, elchi yubordi. Rossiya bunga javoban kichik bir rus harbiy qismini chegaraga yaqin joylashtirdi. Kobulga general Stoletov boshchiligida elchilik missiyasi yuborildi. Biroq, bundan ortiq harakatlarga jur'at eta olmadi. Bunga - O'rta Osiyoni to'la bo'ysundirish hamda yaqinlashib qolgan Rossiya-Turkiya urushi muammolari imkon bermadi.

1878-yili Sheralixon ingliz missiyasini Kobul shahrida qabul qilishdan bosh tortdi. Angliyaga bu Afg'onistonga qarshi bosqinchilik urushi ochishga bahona bo'ldi. 1878-yil 20-noyabrda Afg'onistonga qarshi urush harakatlari boshlandi. Sheralixon vafot etgach (1879-yil fevral) taxtga o'g'li Yoqubxon o'tirdi. U inglizlar yordamida hokimiyatni saqlashga harakat qildi. Shu maqsadda inglizlar bilan 1879-yil may oyida Gandamak degan joy da bitim tuzildi. Afg'oniston amalda mustaqilligini yo'qotdi. Kobulda ingliz rezidensiyasi ochildi. Uning vazifasi afg'on amiri xatti-harakatlari hamda Angliyadan yuboriladigan qarzlarni qanday sarflanayotgani ustidan nazorat qilish edi.

Amir Yoqubxonning taslimchilik siyosati mamlakatda keskin qarshilikka uchradi. 1879-yil avgust oyida Kobulda qo'zg'olon ko'tarildi. Shaharliklar ingliz rezidensiyasiga bostirib kirib, uni egalladilar. Inglizlar Gandamak bitimidan keyin qaytarib olib ketgan qo'shinlarini yana Afg'onistonga tashladi. Inglizlar katta kuch bilan Kobulni qayta egalladilar.

Bu orada Afg'onistonning sobiq amiri M. Afzalxonning o'g'li Abdurahmon qo'zg'olonchi qo'shini bilan Kobulni o'rab oldi. Inglizlar tang ahvolda qoldilar. 1880-yilning boshida Abdurahmon Shimoliy Afg'onistonda o'z hokimiyatini o'rnatdi.

Inglizlar Abdurahmon bilan muzokaralar boshlashga majbur bo'ldilar. Abdurahmonga Kobul topshirildi. Qandahor Angliya ta'sir doirasida qoldi. Bularning evaziga Afg'oniston Angliya hamda ingliz Hindistonidan boshqa biror chet el mamlakati bilan diplomatik aloqa qilmaslik majburiyatini oldi. Abdurahmon faqat ichki siyosatdagina nisbatan mustaqillikni saqlab qolishga erishdi.

Afg'oniston taxtining qonuniy vorisi amir Sheralixonning o'g'li Ayubxon Qandahorga yurish boshladi. 1880-yil 27-iyul kuni May-band qishlog'i yonida jang bo'ldi. Ingliz harbiy brigadasi yanchib tashlandi. Inglizlar yangi harbiy qismlar chaqirishga majbur bo'ldi. Bu yangi kuchlar Ayubxonni Hirotga chekinishga majbur etdi. Lekin, aholining qattiq qarshiligi tufayli inglizlar Qandahorni tashlab chiqib ketishga majbur bo'lishdi. Shunday qilib, ikkinchi ingliz - afg'on urushi Angliyaning mag'lubiyati bilan tugadi. Tez orada endi taxt da'vogarlari o'rtasida urush harakatlari boshlanib ketdi. 1880-yili Abdurahmon Ayubxon qo'shinlarini

qattiq talafotga uchratdi. Ayubxon chet elga qochishga majbur bo'ldi. Afg'onistonda Abdurahmonning to'liq hokimiyati o'rnatildi. Amir Abdurahmon (1880-1901-yillar) davrida Afg'oniston qiyin iqtisodiy-ijtimoiy ahvolni boshidan kechirdi. Inglizlar bilan urushlar ishlab chiqarishni izdan chiqardi. Kobul va boshqa shaharlar vayron qilingan edi.

Afg'on amiri mamlakatda «yopiq» siyosat olib bordi. Chet elliklar, ayniqsa yevropaliklarning bu mamlakatga kirishi taqiqlangan edi. Amir mamlakatni siyosiy jihatdan birlashtirish uchun kurash olib bordi. Ma'muriy politsiya apparati (boshqarmasi) tuzildi. Uning harakati bilan xazinaga soliqlar tushishi birmuncha yaxshilandi. Karvon yo'llari xavfsizligi bir qadar ta'minlandi. Qaroqchilar shafqatsiz jazolanadigan bo'ldi. Ular temir qafaslarga solinib, yo'l yoqasidagi ustunlarga osib qo'yilar, ochlik hamda tashnalikda o'linga mahkum qilinar edi. Diniy ulamolarni o'z tarafida tutish uchun Abdurahmon ularga maosh belgiladi. Vaqf mulkini esa qisman davlatga o'tkazdi. Yagona pul birligi, mamlakat uchun bir xil tosh-tarozi va uzunlik o'lchovlari joriy qilindi. Bu tadbirlar tufayli Afg'onistonda savdo-sotiq, ishlab chiqarish va hunarmandchilik bir qadar rivojlandi.

Afg'onistonning XIX asr oxiri va XX asr boshlaridagi xalqaro ahvoli to'la ma'noda Rossiya va Angliyaning o'zaro munosabatlariga bog'liq edi. Amir Abdurahmon bu murakkab sharoitda ikki ulkan mustamlakachi davlat kelishmovchi-liklaridan ustalik bilan foydalandi. Natijada, Abdurahmon o'zining siyosiy mavqeyini mustahkamladi. Mamlakat hududini shimolda Amudaryogacha kengaytirib oldi. 1887-yilda turkmanlar yashaydigan joylarda afg'on-rus chegaralari qat'iy belgilab olindi.

Shundan keyin, Abdurahmon janubda - Hind daryosi bo'ylarida yashaydigan, lekin 1849-yilda inglizlarga bo'ysundirilgan afg'on qabilalarini o'z davlati atrofida birlashtirish harakatini boshlab yubordi. Amir Abdurahmon o'zini ularga «diniy homiy» qilib ko'rsatdi va inglizlarga qarshi jihodga chorladi. Bu esa Angliya bilan urush xavfini tug'dirdi. Bundan cho'chigan Abdurahmon inglizlar bilan 1893-yilda bitim tuzishga majbur bo'ldi. Unga ko'ra, Afg'oniston janubidagi afg'on qabilalari hududlari inglizlar qaramog'ida qolaveradigan bo'ldi.

Inglizlar kelishilgan chiziqqa (muzokara olib borgan inglizlar vakili Dyurand nomi bilan atalgan - Dyurand chizig'i) qo'shin yubordilar. Bunga javoban tog'lik afg'onlar qo'zg'olon ko'tardilar.

1901-yili Abdurahmon vafot etdi. O'rniga o'g'li Habi-bullo amir bo'ldi. U otasi yo'lidan borib afg'on qabila-larini birlashtirish siyosatini olib bordi. InglMaiga qarshi kurashni davom ettirdi. Rossiya bilan savdo aloqalarini o'rnatishga urindi. Lekin, 1904-yili Angliya Kobulga Den missiyasini yuborib, Afg'onistonga bitim taklif qilindi. Unda tashqi savdo Angliya nazora-tida bo'lmog'i, mamlakatda inglizlarning temiryo'l qurishiga rozilik berish, ingliz fuqarolarining Afg'onistonga erkin kirib-chiqishiga ruxsat berish talab qilingan edi. 1907-yili shu masalalarda bitim imzolandi. Unga ko'ra, Afg'oniston Angliya manfaatlari mintaqasi deb e'lon qilindi. Rossiya uchun esa savdo huquqlari berildi, xolos.

Afg'oniston XX asr boshida ishlab chiqarish sanoati yo'q qoloq davlat bo'lib qolaverdi. Soliqlar pul bilan emas, mahsulot sifatida olinardi.

Og'ir sharoitga qaramay, Afg'oniston tashqi dunyodan uzilib qolgani yo'q. Afg'onistonda ham respublikachilik harakati paydo bo'ldi. Bu harakat tarafdorlari «Yosh afg'onlar» deb ataldi. Ular maktab-maorif, madaniyat, fan, texnika tarmoqlarini rivojlantirish g'oyalarini ilgari surdilar. Ular amirlik hokimiyati bilan barobar konstitutsiya ham bo'lishini talab qildilar. Mahsulot solig'ini bekor qilish, ichki boj to'lovlarini yo'qotish, qa-bilalar tengligiga erishish va ko'p masalalarda ilg'or qarashlarni ifoda etdilar. «Yosh afg'onlar» harakatiga «Siroj ul-axbori afg'oniya» («Afg'on xabarleri chirog'i» gazetasi) muharriri

Muhammad Tarziy rahbarlik qildi. U Habibulloxonning uchinchi o'g'li Omonulloxonning qaynatasi edi.

Islahotchilarning butun umidi shu Omonulloxonga qaratildi. Chunki, u «yosh afg'onlar» ruhida tarbiyalangan edi.

Afg'oniston hududining katta qismini Hindiqush va Himolay tog' massivlari va Pomirning bir qismi tashkil etadi. Foydali qazilmalar deyarli yo'q hisobi. Mamlakatda 20 mln. kishi istiqomat qiladi. Shuning 60% ini tub aholi - pushtunlar, 15% ini afg'on Turkistoni deb ataluvchi shimoliy hududda yashovchi o'zbeklar va yana shuncha qismini Tojikistonga qo'shni Badaxshonda istiqomat qiluvchi tojiklar tashkil qiladi. Afg'onistonda jami 20 dan ortiq millat vakillari yashaydi.

Bu yerda yagona ichki bozor yo'q, ularning ko'p qismi turli hududlarga sochilib ketgan va qo'shni davlatlar bilan aloqa qiladi. Afg'oniston beshta davlat - *Pokiston, Eron, Tojikiston, O'zbekiston va Turkmaniston* bilan chegaradosh. Chegara bo'ylab ushbu davlatlarga aloqador etnik guruh vakillari yashaydi.

1933-yilda Afg'oniston shohi Nodirshoh o'limidan so'ng, uning o'g'li Zohirshoh mamlakatning yangi yetakchisi deb e'lon qilindi. Uning 40 yillik boshqaruvi davrida mamlakatda deyarli hech qanday o'zgarish yuz bermadi. Shu davrda jami 300 ta sanoat korxonasi (*shundan 140 tasi Sovet Ittifoqi yordamida*) qurildi. Afg'oniston dunyoda hayot darajasi eng past qoloq davlat bo'lib qolaverdi.

1973-yil 17-iyulda mamlakatda harbiy to'ntarish yuz berdi va monarxiya ag'darilib Afg'oniston respublika deb e'lon qilindi. Zohirshohning ukasi Muhammad Doud Afg'oniston bosh vaziri deb e'lon qilindi. Yangi rejim eski tartibga ko'nikkan ruhoniylar, yirik zamindorlar, davlat amaldorlarining noroziligini keltirib chiqardi.

Boshqa tomondan, yangi tuzum keng xalq ommasmi ham faollikka chaqirdi. Afg'oniston xalq-demokratik partiyasi (AXDP) xalqqa qarshi tuzum bilan kurashayotgan vatanparvar kuchlarga boshchilik qildi, u 1965-yilda tuzildi.

Hukmron tuzum tarafdorlari islom ekstremistlari tashkilotlari bilan yaqindan aloqada bo'ldi. Ular orasida fanatik "musulmon birodarlari", shuningdek, Afg'onistonning asosiy aholisi - pushtunlarning juda ko'pchiligini o'zida namoyon etuvchi ismoiliylar eng faollari edi. O'z mazhabi qoidasiga ko'ra har bir ismoiliy umrida bir marta odam o'ldirishdan iborat "jasorat"ni amalga oshirishi lozim bo'lgan.

Bunday diniy ekstremistik tashkilotlardan foydalangan Doud tuzumi o'z mavjudligini bir qadar uzaytirdi, biroq bu hol uni tugal halokatdan saqlab qola olmadi.

Afg'onistonda ikki muxolifat oqimlar yuzaga keldi: ulardan biri bo'lgan islomiy oqim shahar kambag'allari va dindor dehqonlar hisobiga keng ijtimoiy negizga ega edi.

Ikkinchi muxolifatning asosiy qismini harbiylar, demokratik kayfiyatdagi ziyolilar, uncha ko'p bo'lmagan ishchi va davlat xizmatchilari qatlami tashkil etdi. Uni "*Yo'qolsin zo'ravonlik*" va "*Yashasin demokratiya*" shiorlarini ko'tarib chiqqan AXDP boshqardi. Partiyaning xalq ommasi bilan keng aloqalani yo'q edi. Biroq avvalboshidan partiyada ikki guruh - Nur Muhammad Tarakiy boshchiligidagi Xalq va Babrak Karmal boshchiligidagi Parcham (bayroq) partiyalari o'rtasida ziddiyatlar yuzaga keldi va u dushmanlikka aylandi.

Doud AXDPga qarshi asosiy zarbani berishga qaror qildi. 1978-yil 25-aprelda uning buyrug'i bilan partiyaning barcha rahbarlari qamoqqa olindi. Bu voqea tuzumga qarshi norozilik chiqishlarining boshlanishiga signal bo'ldi. 1978-yil 27-aprelda mamlakat HHK (Harbiy Havo Kuchlari) qo'mondoni polkovnik Abdul Qodir boshchiligidagi Afg'oniston harbiy kuchlarining inqilobiy kengashi Kobul ko'chalariga doimiy qo'shinning bir necha batalonlarini olib chiqdi, prezidentlik saroyini egalladi va Doud hukumati ag'darilganini

e'lon qildi. Prezidentlik saroyi uchun bo'lgan janglarda uning yaqin safdoshlari qatonida Muhammad Doud va uning akasi Sardor Nasim o'ldirildi. Afg'on taqvimini bo'yicha bu voqea 1357-yil 7-savrida (1978-yil 30-aprel) ro'y berdi va u tarixga "*Savr inqilobi*" nomi bilan kirdi.

O'sha kuni Afg'oniston Demokratik Respublikasi (ADR) e'lon qilindi, Inqilobiy kengash va hukumat tuzildi. N.M.Tarakiy bosh vazir, B.Karmal esa uning o'rinbosari bo'ldi. A.Qodir milliy mudofaa vaziri lavozimini egalladi. Yangi hukumat demokratik yer islohotlari loyihasini ishlab chiqdi. Yangi maktablar, turar joylar va ijtimoiy binolar qurilishi boshlandi. Sobiq qirol oilasining a'zolari, prezident Doudga tegishli barcha ko'chmas mulk va boshqa narsalar musodara etildi.

Yangi hokimiyat islohotlari demokratik o'zgarishlarga qarshi chiqqan siyosiy doiralarning qaqshatqich qarshiligiga uchradi, zero ular yangi hokimiyat imtiyozlardan mahrum etadi deb cho'chishdi. Diniy ekstremistlar ADR rahbariyatini islomdan chekinishda ayblab, barcha musulmonlarni ularga qarshi kurashga chaqirdi. Ular targ'iboti ta'siri ostida yuz minglab afg'onlar Pokistonga qochdi. Chet eldan qurol-yarog' olgan qurolli guruhlar shakllana boshladi. Ularning tarkibini "*mujohid*" (e'tiqod uchun kurashchi) nomini olgan musulmon birodarlari va ismoiliylar tashkil etdi.

Ayni paytda AXDP rahbariyatining o'zida hokimiyat uchun keskin kurash boshlanib ketdi. 1978-yil 17- avgustda hukumat respublikaga qarshi fitna fosh etilganini e'lon qildi. Parchamning ayrim yo'l boshchilari, shuningdek, B.Karmal ham qamoqqa olindi. U shundan keyinroq Pragaga elchi qilib yuborildi. Abdul Qodir va boshqa taniqli ijtimoiy-siyosiy arboblardan ham qamoqqa olindi.

Inqilobiy Kengashdagi kurashdan foydalangan N.Tarakiyning sobiq o'rinbosari Hafizuila Ainin hokimiyatga yorib kirdi. 1979-yil martda u bosh vazir lavozimini egalladi. O'sha yilning sentabrida H.Amin N.Tarakiyni zo'rlik bilan chetlatib, so'ngra esa o'ldirib, AXDP MK bosh kotibi va Inqilobiy kengash raisi lavozimlarini egalladi. Shu bilan *Savr inqilobi* tugadi.

AXDP rahbariyati tor-mor etildi. Uning a'zolaridan ko'pchiligi jismonan yo'q qilindi. Mamlakatda terror va zo'ravonlik tuzumi o'rnatildi.

Qatag'onlar Kobul tuzumiga qarshi kurashni kuchaytirishga imkon yaratdi. Muxolifatdagi unsurlar vaziyatdan unumli foydalandi. Savr inqilobiga qarshi chiqqanlarning ko'pchiligi (B.Rabboniy, G. Hikmatyor, S.Mudjadaddiy) hail Zohirshoh va Doud hukmronligi yillaridayoq Afg'onistondan muhojirotga ketgan edi. Ular *Pokiston, Saudiya Arabistoni va Misrda* qo'nim topishdi.

1979-yil oxirlariga kelib qurolli muxolifat guruhlari Afg'onistondagi 26 viloyatdan 18 tasida mavjud edi. Inqilobiy kengash davlat ustidan nazoratini yo'qotdi. Mujohidlar guruhlarining xatti-harakatlari mamlakatga katta zarar yetkazdi, barcha demokratik o'zgarishlar barham topdi.

H.Amin isyonchilarga qarshi amalga oshirgan chora tadbirlari yoki tayyorlanmagan yoki ishonchsiz bo'lib chiqdi. Dekabr boshlariga kelib hukumat faqat Kobul va bir necha shaharlarnigina nazorat etdi, xolos.

Sovet Ittifoqi boshidanoq Afg'onistondagi inqilobni qo'llab-quvvatladi. U SSSR.ning global siyosatidagi muhim bo'g'in edi. Shu bois sovet rahbariyati qaltis qadam qo'yishga qaror qildi. 1979-yil 25-dekabrda afg'on askarlari kiyimini kiygan KGB.ning "*Alfa*" bo'linmasi prezidentlik saroyini ishg'ol etdi va H.Amin o'ldirildi. Shu kuni B.Karmal ADR prezidenti lavozimiga o'tirdi, u bundan bir necha kun avval Kobulga maxfiy ravishda qaytgan edi.

B.Karmal sovet rahbariyatiga Afg'onistonga qo'shin kiritish iltimosi bilan murojaat qildi, bu qo'shinlar oldindan tayyorlab qo'yilgan bo'lib, 28-dekabrda chegarani kesib o'tdi. Bir necha kun mobaynida Kobulga 50 ming askar va zobitlar yuborildi, yanvarning oxiriga borib esa ular soni 85 mingdan oshdi. Bu hol vaziyatni o'zgartirib yubordi: inqilobiy tuzumga qarshi kurash vatanparvarlik milliy-ozodlik urushiga aylanib ketdi.

AQSH SSSR.ning Afg'onistonda o'z pozitsiyalarini mustahkamlashiga yo'l qo'ya olmas edi va ular Pokistonni sovet tajovuzini qaytarish uchun o'ziga xos platsdarmga aylantirdi. Pokiston hududida afg'on janga rilari uchun lagerlar qurildi, AQSH ularga eng zamon aviy quroilarni berdi. "*Stingerlar*" - samolyotlar bilan kurashda qo'llaniluvchi yengil raketalar Sovet Ittifoqini osmondagi ustunlikdan mahrum etdi. Urush cho'zilib ketdi.

Urush yakunlari Afg'onistonda davom etgan 10 yil hik urush mamlakat iqt sodiyotiga ulkan zarar yetkazdi. Yuzlab qishloqlar, 2 ming maktab vayron etildi, o'niab eiektrostansiyalar buzib tashlandi, o'nlab sanoat korxonalari faoliyati to'xtab qoldi.

5 mln. afg'on, ya'ni mamlakat aholisining qariyb choragi qo'shm Pokiston hududiga, 1,5 mln.i Eronga qochib ketdi. Bu yerda yosh afg'onlardan mujohidlar guruhlar tuzildi, ular amerikalik mutaxassislar tomonidan zamonaviy qurollarni ishlatishga o'rgatildi.

1989-yilda Sovet Ittifoqi urushni bundan keyin davom ettirishning foydasizligini tushunib yetib, o'z qo'shinlarini Afg'oniston hududidan olib chiqib ketdi. Mamlakatda yangi vaziyat yuzaga keldi. Kobulda B.Karmalning o'rniga kelgan Najibullo inqilobi sovetparast tuzumi saqlanib qoldi. Mujohidlar o'z hukumatini tuzish, unda Sibxatulla Mujadaddiy mamlakat prezidenti etib tayinlandi.

Afg'on o'tish hukumati urushni Jalolobodni egallash va u yerda qaror topish bilan tugallamoqchi bo'ldi. Biroq ular bunga faqat 1992-yildagina muvaffaq bo'lishdi va inqilobiy tuzum qoldiqlari qarshiligui yengib, poytaxtni egallashdi. Najibulla BMT vakolatxonasiga yashirindi.

Asosiy dushman tugatilgandan so'ng mujohidlar orasida kelishmovchiliklar boshlandi. Kobulni dala qo'mondoni Ahmad Shoh Ma'sud nazorat qildi. Uning raqibi general Rashid Do'stum o'z qo'mondonligi ostida 40 ming militsioner-ko'ngilli askarlarga ega edi. 1992-yilda Burhoniddin Rabboniy prezident etib saylandi, u yangi konstitutsiyani qabul qilish uchun Ta'sis majlisini chaqirishga da'vat etildi.

Mamlakatda hokimiyatsizlik boshlandi. Do'stum (o'zbeklar), Ahmad Shoh Ma'sud (tojiklar) va Hikmatyor (pushtunlar) etnik lagerlari o'rtasidagi kurash o'zaro (ichki) urushlarga aylanib ketdiki, unda 5 ming kishi halok bo'ldi, Kobul esa to'liq vayron etildi. Tojiklarning vakili bo'lgan Rabboniy prezidentlik lavozimini bo'sha tib berish yoki Ta'sis majilsini chaqinshdan voz kechdi. Hikmatyor norozilik belgisi sifatida hukumat tarkibidan chiqdi va mamlakat bosh vazirsiz qoldi. Asosiy mojaro Rabboniy va Pokiston yordamidan foydalangan Hikmatyor o'rtasida ro'y berdi.

XX asrda Afg'oniston o'z tarixining murakkab va muhim davrini boshidan kechirdi. XIX asrda yetilib kelgan ijtimoiy-siyosiy va madaniy muhit jiddiy o'zgarishlarga zamin hozirladi desak mubolag'a bo'lmaydi. Habibullaxon hukmronligi davridayoq mamlakatda tub o'zgarishlar jarayoni boshlangandi. Bu davrda hukmron elita vakillarining yevropalashishi boshlangandi. Bu esa o'z navbatida jamiyatning yevropa andozasi bo'yicha modernizatsiya qilinishiga turtki bo'ldi. Omonullaxon boshchiligidagi "yosh afg'onlar" hukumati keskin radikal islohotlarni o'tkaza boshladi.

Omonulloxon hukmronligi davrida mamlakat boshqaruv tizimi o'zgarishlarni boshidan kechirdi, bir qator iqtisodiy va ijtimoiy-maishiy o'zgarishlar, hamda ma'muriy va harbiy islohotlar amalga oshirildi.

1923-yilda Afg'oniston tarixidagi birinchi Konstitutsiya qabul qilindi. Konstitutsiya amirni oliy dunyoviy va diniy hokimiyatning boshlig'i deb e'lon qildi (1926-yilda Omonulloxon podshoh deb e'lon qilindi). Hukumat qoshida konsultativ davlat kengashi faoliyat yuritgan, bundan tashqari qabila boshliqlari va musulmon ruhoniylari majlisi – Loya Jirg'a faoliyat yuritgan. Davlat kengashi 25 kishidan (sobiq vazir, gubernator va boshqalar) iborat bo'lib, uning tasarrufida tashkiliy (qonunlarni tayyorlagan va talqin qilgan), sud (davlatning oliy-ma'muriy va appelyatsiya) va fuqaro (fuqaro, savdo va ijtimoiy ishlar xalq maorifini boshqargan) bo'limlari faoliyat yuritardi. Ijro hokimiyati Durbori Oliy (hukumat amaldorlarining kengashi) va hukumatga tegishli edi. Konstitutsiya alohida demokratik erkinliklarni (xususan, mulk va uy-joy daxlsizligi, qonun oldida barchaning tengligi) kafolatlab berardi, qulchilikni bekor qilib, diniy tenghuquqlikni e'lon qildi.

Afg'onistonda harbiy, tashqi va ichki ishlar, adliya, moliya, savdo, jamoa xavfsizligi (politsiya), xalq maorifi, qishloq xo'jalik (ziroatchilik) vazirliklari hamda pochta, telefon, telegraf va tibbiyot boshqarmalari tashkil etildi. Vazirlar

amir oldida shaxsan javobgar edilar. Mahalliy hukumat vakolatlari avvalambor, general gubernatorning vakolatlari aniq belgilandi va tartibga solindi. Gubernatorlar eng muhim masalalarni vazirliklarning muvofiq qarorisiz yechish huquqidan mahrum qilindilar, shunga qaramasdan, ularda keng vakolat, mustaqillik saqlanib qoldi. Joylarda maslahat vazifalariga ega provinsiya, viloyat va uyezd kengashlari tashkil qilindi. Ma'muriy islohot natijasida Afg'oniston 5 ta provinsiyaga bo'lindi. Mamlakatda jinoyat kodeksi qabul qilindi, jinoyatlar esa jinoiy, lavozim va fuqaro jinoyatlariga bo'lindi. Hukumat jazo shakllarini yumshatib, qiynoqlarni bekor qildi. Jinoiy ishlarda oliy sudya etib amir e'lon qilindi.

1928 yilda, Yevropa va Sharq mamlakatlariga qilgan sayohatidan (1927) so'ng Omonulloxon savdogarlar kapitalini davlat ehtiyojlariga yo'naltirish maqsadida davlat banki qurishga urinib ko'rdi. Bu fikr savdogarlarga yoqmadik va ular xususiy bank tashkil qilish fikri bilan chiqdilar.

Hukumat zamonaviy sanoat korxonalarini tashkil qilish yo'lida odimlab, transport va aloqa vositalarini zamonaviylashtirish chora-tadbirlarini amalga oshirdi. Yevropa va Sharq mamlakatlari bilan bir qator anglashma va kelishuvlar imzolandi.

Hukumatning ijtimoiy-maishiy sohadagi islohotlari alohida ahamiyatga ega. Bu boradagi islohotlar qolganlaridan o'tib ketdi va konservativ kayfiyatdagi afg'on jamiyatida juda katta norozilik uyg'otdi.

Radikal o'zgarishlar podshoh atrofida ziddiyatlarni va shaxsiy raqobatni kuchaytirdi. Podshoh o'z pozitsiyasini mustahkamlash va yanada keskin islohotlarga kirishish uchun "Istiqlol va tajaddud" deb nomlangan shaxsiy partiyasini tuzishga urinib ko'rdi. Partiyaning tuzilishi mo'tadil kayfiyatdagi yosh afg'onlarning noroziligiga sabab bo'ldi. Omonullo davlat apparatini tozalash bilan

javob berdi (xususan, Mahmud Tarziy va mudofaa vaziri Muhammad Valixon o'z lavozimlaridan mahrum bo'ldilar). Yetakchi lavozimlarga shaxsan hukmdorga

sodiq kishilar tayinlandi.

Afg'oniston yevropalashtirish ruhidagi radikal o'zgarishlarga tayyor emas edi. Omonullaxonning an'anaviy tartib va asoslarni tubdan o'zgartirish uchun tanlagan keskin yo'li tushunmovchilik va qahr-g'azabga sabab bo'ldi. Pirovardida rejimni himoya qilish hech kimga kerak emas edi (Bachai Sakao atigi 2-3.000 kishilik guruh yordamida hokimiyatni egallashga muvaffaq bo'ldi). Armiyaning roliga yetarli baho bermaslik muhim ahamiyatga ega bo'ldi. Harbiy ehtiyojlar uchun ajratilgan mablag'lar shubhasiz kifoya qilmas edi, qurolli kuchlarni qisqartirish siyosati amalga oshirilgandi. O'ziga ishongan, jizzaki va shoshqaloq podshoh Omonullaning radikal islohotlarni o'tkazishga bo'lgan urinishi chippakka chiqdi.

Nodirshoh va Zohirshoh o'tkazgan islohotlar ham Afg'onistonni modernizatsiya qilishni boshlab bergan Omonullaxon islohotlarining mantiqiy davomi edi. Faqat, Nodirshoh islohotlari radikal emas, ancha mo'tadil ko'rinishga ega bo'ldi. Afg'oniston 1920-30 yillarda ko'pgina g'arb mamlakatlari bilan (xususan, Germaniya, Yaponiya, Italiya) ijtimoiy-iqtisodiy aloqalarni kuchaytirdi. AQSh va SSSR ko'magi bilan yangi sanoat korxonalari, elektr stansiyalar va boshqa obyektlar qurildi. Germaniyaning Lyuftganze aviakompaniyasi Kobulga aviareyslar tashkil qildi. Bularning barchasi mamlakatni modernizatsiya jarayoniga chuqur olib kirdi.

1931 yil oktabrida Lo'ya Jirg'a o'z yig'ilishida yangi Konstitutsiyani qabul qildi. Konstitutsiyada asosiy e'tibor Nodir Shoh va sulolasining huquq va imtiyozlariga qaratilgan edi. Podshoh vazirlar mahkamasi tarkibini tasdiqlar edi, qonunlarga veto qo'yish huquqiga ega edi, tashqi siyosatni amalga oshirar, urush e'lon qilar, sulh tuzar edi va h.k.

Iqtisodiy siyosat borasida Nodir Shoh asosan Omonullaxonning milliy kapitalni shirkatlarga birlashtirish yo'lini davom ettirdi. Aytish kerakki, 1928-29 yillardagi hodisalardan cho'chib qolgan milliy burjuaziya endi shirkatlashtirish fikrini yanada xayrixohlik bilan qabul qildi hamda buni xorijiy kapital bilan raqobat asosidagi

kurashda real qurol sifatida ko'rdi. 1931 yilda Afg'onistonda besh million afg'oniydan ortiq kapital bilan "Shirkati asxomiy" deb atalgan milliy kredit idorasi (birinchi bank) ochildi (buning 4,5 millionini davlat berdi). Bank oldiga afg'oniy kursini barqarorlashtirish va savdogarlarga kredit berish vazifalari qo'yildi. "Shirkati asxomiy" asosida ko'p o'tmay Afg'oniston Milliy banki (AMB) tashkil etildi va unga 1932 yilda qorako'l (Afg'oniston eksportining asosiy mahsuloti) tayyorlash va eksport qilishda monopoliya berildi. AMB mamlakatdagi pul muomalasini nazorat qilar, savdo-sotiq operatsiyalari bilan shug'ullanar edi hamda bir qator mahsulotlarni eksport va import qilishda monopoliya huquqiga ega edi. Endilikda shirkatlar bankning bevosita ishtirokida tashkil qilinar, bank esa ularning hissadori bo'lar edi. Buning natijasida Afg'onistonda 30-yillarning boshida 30 dan ortiq shirkat mavjud edi.

Shunday qilib, Nodir Shoh va Zohir Shoh islohotlar siyosatini davom ettirib, o'z mamlakatlarini zamonaviylashtirish yo'lida olib bordilar. Omonullaning radikalligi va qarama-qarshiligidan saqlangan holda ular Afg'onistonning rivojlanishini bir odim oldinga siljitishga muvaffaq bo'ldilar.

Xulosa qilib aytadigan bo'lsak, XX asrda Afg'oniston keng modernizatsiya jarayonlarini boshidan kechirdi. Afg'onistonning bu modernizatsiya tarixini o'rganish, uning afg'on jamiyatiga ta'siri qanday bo'lganligi, bu yangilanishlar natijasida mamlakat nimalarga erishdiy-u nimalarni qo'ldan boy berganligini chuqur tahlil qilishni talab etadi. Yangilanishlarning bu to'lqini mamlakatni rivojlanish yo'liga olib kirgan bo'lsada, ijtimoiy voqelik buning aksini ko'rsatdi. Ya'ni mamlakatda chuqur inqirozli holatlar namoyon bo'la bordi. O'tkazilgan islohotlarga jamiyatning tayyor emasligi, xalqning milliy va diniy qadriyatlarining ikkinchi darajaga tushib qolishi, g'arbcha konstitutsion monarxiyaning

zo'rma-zo'raki joriy etishga urunish va boshqa omillar Afg'onistonda vaziyatning izdan chiqishiga olib kelgan portlashga sabab bo'ldi.